

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№7

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025
IYUL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



UZBEKISTAN

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr,
268 sahifa, iyul, 2025-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Yashil ish o'rinlari va ekologik ta'lim: o'zbekiston yoshlari uchun yangi imkoniyatlar	12
Rashidov Saidislom, Zaripova Mardona	
Soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash holatlarining informatsion assimetriyaga ta'siri	16
Babanazarova Nilufar Xolmatovna	
Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda budget mablag'laridan foydalanish mexanizmining o'rni va ahamiyati	23
Rustamova Gulmira Aliqulovna	
Dasturiy mahsulotlar logistikasi	30
Uzaqov Ortik Shaymardanovich	
Banklarda moliyaviy barqarorligini ta'minlashda moliyaviy natijalar ahamiyati	35
Djalilov G'ayrat Qaxramanovich	
Oliy ta'lim muassasalarini "yashil universitet" tizimiga transformatsiya qilish istiqbollari (buxoro davlat texnika universiteti va malayziyaning oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik misolida)	39
Rahmatov Shuxrat Axatovich	
Davlat qarzi siyosati samaradorligini oshirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash	43
Sayfutdinov Xasanboy Dilshodovich	
Оптимизация бизнес-процессов и модернизация занятости в условиях цифровизации	47
Явкачев Шохзод Зайниддин углы	
Strategik rivojlanish sharoitida investitsion jozibadorlikning o'rni	54
Otaboyev Axmed Maxsudbek o'g'li	
Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishni rag'batlashtirish	61
Annaklichev Saxi Saparmuxamedovich	
Альтернативный подход к распределению финансовых ресурсов для эффективного финансирования высшего образования	65
Гулшат Карлибаева	
Banklarda moliyaviy barqarorligini ta'minlashda moliyaviy natijalar ahamiyati	70
Djalilov G'ayrat Qaxramanovich	
O'zbekistonda jahon sivilizatsiyasiga ta'sir o'tkaza oladigan zamonaviy qarashlarga ega memolarning yetishmasligi	74
Nabiyev Hamidjon Mirzo o'g'li	
General Concept and Principles of Quality Management System	78
Atamirzayev Nodirbek Bekmirzayevich	
Transformatsiya jarayonida tijorat banklarining kreditlash faoliyatini rivojlantirish	84
Absamatov Anvar Ergashovich	
Интегральный показатель отбора экспертов для принятия коллегиальных диагностических решений	94
Uraqov Shokir Ulashovich	
Korxona faoliyatini tahlil qilishda boshqaruv hisobining roli	100
Abdurasulov Xumoyun Jalil o'g'li, Axmedov Xasan Ruzibayevich	
Raqamli iqtisodiyot va buxgalteriya hisobini tashkil etish	107
Abdullayev Abdurauf	
Moliyaviy hisobotni transformatsiya qilish	112
Sheraliyev Xayrulla Karimovich	
O'zbekiston sharoitida raqamli transformatsiyaning makroiqtisodiy indikatorlarga ta'siri	116
Samarqand davlat uiversiteti, Kuldoshev Lazizjon Sharifovich	



Raqamli iqtisodiyotning turizm sohasidagi bandlik shakllariga ta'siri.....	120
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
Xalqaro moliya-kredit institutlari bilan hamkorlikning xorij tajribasi.....	126
Qosimov Bobur Sobirovich	
Jahonda moliyaviy munosabatlar rivojlanishida korporativ tuzilmalar faoliyatining o'rni	131
Kurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich	
Iqtisodiyotning real sektor subyektlarining faoliyatini moliya-kredit mexanizmlari orqali rag'batlantirishning xalqaro tajribasi	136
Mahmudov Nurali Komilovich	
O'zbekiston sharoitida raqamli transformatsiyaning makroiqtisodiy indikatorlarga ta'siri	140
Sanakulova Iroda, Kuldoshev Lazizjon Sharifovich	
Sho'r suvni chuchuklashtirish uchun absorber sifatida foydalanilgan quyosh elementlari tuzilmasining tajriba sinov tahlillar	144
Tursunov Muxamad Nishanovich, Sabirov Xabibullo, Axtamov Tohir Zuxriddinovich, Abriyev Shaxzod Akbar o'g'li, Bobomuratov Sardor Abdurasul o'g'li	
Развитие банков в системе цифровых финансовых услуг в Республике Узбекистан.....	151
Даденова Гульхан Кенесбаевна	
Внедрение экологических стандартов в транспортной системе: проблемы и перспективы	156
Абдурахманова М.Т.	
Elektron o'quv kontenti orqali mustaqil ta'lim va tadqiqot faoliyatini rivojlantirish	162
Ahunova Tamannoxon Zokir qizi	
Raqamli transformatsiya sharoitida davlat va xususiy sektorda korporativ boshqaruv strategiyasini yangilash: O'zbekiston modeli	167
Tojialiye Sherdorbek Elmurod o'g'li, Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
Jismoniy shaxslar uchun aksiyalar bozoriga kirish strategiyalari va investitsiya imkoniyatlari: O'zbekiston va xalqaro tajriba tahlili	171
O'raqov Bekzodbek Abdurayxon o'g'li	
Energetika tarmog'ida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini (mhxs) joriy etishning nazariy asoslari	176
Uralov Temur Boxodir O'g'li	
Nodavlat notijorat tashkilotlarini mablag'larini shakllanishi va nazorat qilinishi	181
Xolbekov Ulug'bek Toshpulat o'g'li	
Oliy ta'lim muassasalarining xalqaro reyting ko'rsatkichlarini oshirishning strategik boshqaruv mexanizmlari	185
Mamajonova Muxlisaxon Muzaffar qizi	
Economic Efficiency of Digital Twin and Bim Technologies in Construction Enterprises.....	189
Nigmatjonova Nozima Ulmasjonovna	
Uzumchilikka ixtisoslashgan xo'jaliklarning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari	197
Tursunov To'liqin Jo'raqulovich	
Совершенствование проверки налогового аудита в Узбекистане	202
Юсупов Мансур Расулович	
Navoiy viloyatida mehnat resurslaridan foydalanishni ekonometrik modellashirish usullari	207
Hamroyev Anvar Ashurovich	
Texnika fanining bugungi kunda o'rni va ahamiyati	214
Ulasheva Shaxlo Tagayevna, Xujamurotova Mashxura G'ayrat qizi	
Globalashuv sharoitida mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalalari.....	219
Nurmurodov Olmos Eshmuradovich	
Banklarda xalqaro hisob-kitoblar hisobini takomillashtirish	226
Uzaqova Gulmira Yuldashovna	



Korxona mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar va ularning o'zaro bog'liqligi. (artel korxonasi misolida)	230
Abdug'aniyev Ilyosbek Shavkatbek o'g'li	
Gaz sanoatiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning moliyaviy jihatlarini	238
Ergashev Muhibbek Aslam o'g'li	
Namangan viloyatida investitsiya faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari.....	242
Inamov Farxodjon Ikrom o'g'li	
Математическое моделирование кинематики движения шаров различного размера в барабанных мельницах	246
Акмал Жуманазаров	
Влияние «зеленых» инвестиций на устойчивое экономическое развитие: теоретические и прикладные аспекты	253
Исомов Б. С.	
Bozor xizmatlari ko'rsatish sohasini innovatsion rivojlantirishning konseptual asoslarining shakllanish xususiyatlari	260
Alimdjanova Oydin Nodirovna	



BOZOR XIZMATLARI KO'RSATISH SOHASINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARINING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI

Alimdjanova Oydin Nodirovna

Buxoro davlat universiteti

mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada bozor xizmatlari ko'rsatish sohasining innovatsion rivojlanish xususiyatlari hamda ushbu yo'nalishda samaradorlikka erishishga bag'ishlangan ilmiy qarashlarning shakllanishi bilan bog'liq jihatlar tadqiq etilib, u turli rivojlanish bosqichlariga ajratilgan va har bir bosqichda erishilgan ijobiy natijalar aniqlangan.

Kalit so'zlar: xizmat ko'rsatish, bozor xizmatlari, infratuzilma, bozor infratuzilmasi, innovatsiya, innovatsion xizmat, innovatsion samaradorlik, xizmat ko'rsatish sohasining innovatsion samaradorligi.

Abstract: The article examines the features of innovative development of the sphere of market services and the features associated with the formation of scientific approaches to achieving efficiency in this area, divides them into stages of development, and identifies positive results achieved at each stage.

Keywords: provision of services, market services, financial services, banking, banking services, infrastructure, market infrastructure, innovation, innovative service, innovative efficiency, innovative efficiency of the service sector.

Аннотация: В статье рассматриваются особенности инновационного развития сферы рыночных услуг и особенности, связанные с формированием научных подходов к достижению эффективности в этой сфере, проводится их разделение на этапы развития, выявляются положительные результаты, достигнутые на каждом этапе.

Ключевые слова: предоставление услуг, рыночные услуги, финансовые услуги, банковское дело, банковские услуги, инфраструктура, рыночная инфраструктура, инновации, инновационная услуга, инновационная эффективность, инновационная эффективность сферы услуг.

KIRISH

Jahon xo'jaligida iqtisodiy munosabatlarning amal qilishi rivojlanishning turli bosqichlarida tegishli xizmatlar ko'rsatishni talab etgan. Jumladan, zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida innovatsion bozor xizmatlari mamlakatlar milliy iqtisodiyotining muhim ahamiyat kasb etuvchi ajralmas tarmoqlaridan biri sifatida shakllanib, uning rivojlanish tendensiyalarining jadallashuvi, raqobat ustunliklari va iqtisodiy munosabatlar tizimining amal qilishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qilmoqda. Bu turdagi xizmatlar ayrim iqtisodiy tadqiqotlarda bozor infratuzilmasi xizmatlari sifatida ham baholangan bo'lib, bugungi kunda ushbu sohaga raqamli texnologiyalar, neyronlashtirilgan tizimlar, blokcheyn, sun'iy intellekt va boshqa turdagi innovatsion ishlanmalarning joriy etilishi global darajada bozor xizmatlari sohasini innovatsion rivojlanish yo'liga yo'naltirib, uning miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarining takomillashuvi hamda yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishilishi uchun zamin yaratmoqda.

Bugungi kunga qadar iqtisodiy fanda innovatsion bozor xizmatlari ko'rsatish sohasi amal qilish xususiyatlarini tadqiq etishga qaratilgan ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lib, ularning natijasida mazkur yo'nalishdagi turli ilmiy-nazariy qarashlar va uslubiy yondashuvlar shakllangan. Olingan natijalar milliy va global darajada innovatsion bozor xizmatlari ko'rsatish sohasi amal qilishining tegishli qonuniyatlarini, uni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash imkonini beradi.

Yangi O'zbekiston islohotlari sharoitida milliy iqtisodiy munosabatlar tizimini global tizimlar, jumladan, xalqaro standartlar tizimiga integratsiyalashga ustuvorlik berilishi mamlakatda ham innovatsion bozor xizmatlari ko'rsatish sohasini rivojlantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ushbu holat iqtisodiy fanda innovatsion bozor xizmatlari ko'rsatish amaliyotiga bag'ishlangan ilmiy-nazariy qarashlarni chuqur tahlil qilish asosida ushbu sohani shakllantirish va rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash zaruratini oshirmoqda.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy fanda bugungi kunga qadar bozor iqtisodiyotining amal qilishi va uning rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilishga qaratilgan ilmiy qarashlarni tahlil qilish asosida innovatsion bozor xizmatlari ko'rsatishga qaratilgan ilmiy qarashlarni guruhlashni amalga oshiramiz. Umuman olganda, bozor iqtisodiy munosabatlari, jumladan, uning tarkibiy xususiyatlarini tushuntirishda klassik iqtisodiy maktab olimlari tomonidan shakllantirilgan ilmiy qarashlarni tahlil qilish talab etiladi. Klassik iqtisodiy maktab vakillari tomonidan shakllantirilgan bozor iqtisodiyoti amal qilishi, xususan, uning amal qilishida bozor xizmatlari ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan masalalarda erkin tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga ustuvorlik qaratilib, V. Petti¹, F. Kuyesnay², P. Boisgilbert³, A. Smit⁴, hamda D. Rikardo⁵ kabi iqtisodchi olimlarning bozor xizmatlari ko'rsatish sohasi va uni innovatsion tarzda rivojlantirish zaruriyati borasidagi bildirgan fikrlarini tizimli tahlil qilish asosida quyidagi umumlashtirilgan xulosalarga kelindi:

Birinchidan, bozor iqtisodiy munosabatlarining shakllanishi nafaqat tadbirkorlik subyektlari, balki jamiyatning har bir a'zosi o'z imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanishi asosida aholining maksimal darajadagi turmush farovonligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, bunda davlat tomonidan har bir shaxs uchun "erkin tanlov" imkoniyatlarining yaratilishida bozor xizmatlariga asoslaniladi. Bozor xizmatlari ko'rsatish orqali jamiyat a'zolarining ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlariga ustuvorlik qaratilishi natijasida iqtisodiy munosabatlarda ishtirok etuvchilar erkin qaror qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Demak, bozor xizmatlari ko'rsatilishi mamlakat aholisini "erkin iqtisodiy agent" sifatida iqtisodiy munosabatlardagi erkinligini ta'minlashi zarur bo'ladi.

Ikkinchidan, "erkin iqtisodiy agent"larning o'z manfaatlariga ustuvorlik berilishi inobatga olingan holda, bozor xizmatlari jamiyatdagi umumiy manfaatlar uchun ularning iqtisodiy jihatdan o'zaro manfaatli hamkorligini ta'minlovchi mexanizm sifatida namoyon bo'ladi hamda iqtisodiy munosabatlar tizimida "tabiiy tartib"ni o'rnatishga xizmat qiladi. Klassik iqtisodiy yondashuvlarda bozor xizmatlari ko'rsatish asosida erishilgan "tabiiy tartib" jamiyat a'zolarining o'zaro manfaatli "almashinuv" munosabatlarida faol ishtirok etishiga zamin yaratadi.

Uchinchidan, bozor iqtisodiy munosabatlari tizimi amal qilishi sharoitida o'zaro raqobatlashayotgan har bir iqtisodiy subyektning ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan, jumladan, resurslar taqsimoti, ishlab chiqarish, ishlab chiqarilgan mahsulotni sotish va uni iste'molchiga yetkazib berishgacha bo'lgan barcha bosqichlar uchun bozor intizomini shakllantirishda bozor xizmatlari ko'rsatish amaliyotidan foydalaniladi. Bu esa bozor xizmatlari erkin iqtisodiy munosabatlar tizimida raqobat muhitini shakllantirish bilan birga, ishlab chiqarish jarayonlarini samarali tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi lozimligini anglatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, induksiya va deduksiya, tahlil va sintez, qiyosiy va selektiv tanlab tadqiq qilish, monografik tahlil hamda guruhlash kabi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Umuman olganda, klassik iqtisodiy maktab vakillari bozor xizmatlarini ushbu tizimning samarali amal qilishi uchun zarur bo'lgan infratuzilmaning davlat yoki nodavlat institutlari tomonidan ko'rsatiladigan iqtisodiy ahamiyatga ega xizmatlar sifatida ajratib ko'rsatgan. Ularning fikricha, bozor xizmatlarining ijtimoiy xizmatlar sohasidan farqli jihati — iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashga ustuvorlik berilishidir. Bu esa bozor xizmatlari ko'rsatish amaliyotining ijtimoiy xizmatlar sohasidan farq qiluvchi xususiyatlarini aniqlab ko'rsatish imkonini beradi (1-jadval).

1 Merlassino V.C. The Economic Writings of Sir William Petti (1623-1687): Never Translated into Spanish Language. Universitat de Barcelona. [Web Resource]. URL: https://eet.pixel-online.org/files/research_papers/SP/The%20Economic%20Writings%20of%20Sir%20William%20Petty%20.pdf

2 Bilginsoy C. Quesnay's Tableau Economique: Analytics and Policy Implications. Oxford Economic Papers, No 46, 1994. — pp. 519-533

3 Migunov R.A., Syutkina A.A. Classical and Neoclassical Economic Theory: Fundamentals of Regulation or the Agricultural Sector. BIO Web of Conferences, 05031, 2024. — pp. 1-10. DOI: 10.1051/bioconf/20248205031


4 Tsoulfidis L. Adam Smith's Theory of Value and the Falling Rate of Profit: Uncommon Conceptions and Common Misconceptions. IE, 83 (330), Otoño 2024, - pp. 28-52

5 T.P. Bagchi, R.P. Mohanty, S. Sinha. A Tutorial on Optimisation Involving David Ricardo Theory on Comparative Advantage. International Journal of Industrial and Systems Engineering, Vol. 44 (1), May, 2023. — pp. 1-18. DOI: 10.1504/IJSIE.2023.130918

1-jadval: Bozor va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish amaliyotining o'zaro farqli jihatlari⁶

Bozor xizmatlarining o'ziga xos xususiyatlari	Ijtimoiy xizmatlarning o'ziga xos xususiyatlari
Iqtisodiy munosabatlar tizimining samarali amal qilishini ta'minlaydi	Ijtimoiy munosabatlar tizimining samarali amal qilishini ta'minlaydi
Iqtisodiy muammolarni bartaraf etib, qo'shimcha daromad olish imkoniyatlarini kengaytiradi	Ijtimoiy muammolarni bartaraf etish, aholi turmush farovonligi va yashash shart-sharoitlarini yaxshilaydi
Bozor infratuzilmasining davlat va nodavlat institutlari tomonidan ko'rsatiladi	Ijtimoiy sohada faoliyat yurituvchi davlat va nodavlat institutlari tomonidan amalga oshiriladi
Iqtisodiy samaradorlikka erishishga ustuvorlik qaratiladi	Ijtimoiy samaradorlikni ta'minlashga ustuvorlik qaratiladi

Klassik iqtisodiy yondashuvlarni tahlil qilish natijasida bozor iqtisodiy tizimi amal qilishida ko'rsatiladigan infratuzilma xizmatlari ularning natijaviy ahamiyatidan kelib chiqib o'zaro farqlanishi aniqlangan (1-jadvalga qarang). Ya'ni, ijtimoiy xizmatlar asosan bozor iqtisodiy tizimi amal qilayotgan sharoitda aholi turmush farovonligini oshirish va ularning yashash shart-sharoitlari bilan bog'liq ijtimoiy muammolarni hal etishga qaratilgan holda tashkil etiladi. Bozor xizmatlari esa, asosan, iqtisodiy faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlarining xo'jalik yuritishi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratishga qaratiladi. Bu xizmatlar nafaqat tadbirkorlik subyektlari, balki jamiyatning har bir a'zosining erkin faoliyat yuritishi asosida yuqori daromad olish imkoniyatlarini kengaytirishi kerak, degan xulosaga kelindi. Shu bilan birga, bozor va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi bozor iqtisodiyoti sharoitida bir vaqtning o'zida o'zaro mutanosiblikda, to'g'ri tashkil etilsa, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlash imkoniyatlarini kengaytiradi (1-rasm).



1-rasm. Klassik iqtisodiy maktab yondashuvlarida bozor xizmatlari ko'rsatishning ustuvorliklari⁷

Jumladan, klassik yondashuvlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bozor xizmatlari ko'rsatish amaliyoti yaxlit milliy iqtisodiy tizim amal qilishida raqobat kurashining chuqurlashuvi, ishlab chiqarish jarayonlarining samaradorligini ta'minlash, bozordagi talab va taklif muvozanatini barqarorlashtirish, mamlakatdagi iqtisodiy o'sish bilan innovatsion faollik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni shakllantirishga qaratilgan.

Shu bilan birga, innovatsion bozor xizmatlari ko'rsatish amaliyotining nazariy asoslari shakllanishida uni tashkil etish va amalga oshirish texnologiyasi bilan bog'liq bo'lgan o'zgarishlar — jumladan, xizmat ko'rsatish amaliyotini takomillashtirish orqali uning yuqori samaradorligini ta'minlash imkonini beruvchi "innovatsion iqtisodiyot", "bilimlar iqtisodiyoti", "raqamli iqtisodiyot" hamda "yashil iqtisodiyot" kabi konsepsiyalarning ahamiyati sezilarli darajada ortib bormoqda.


Ushbu konseptual qarashlar asosida bozor xizmatlari ko'rsatish amaliyotining texnik-texnologik xususiyatlari bilan bog'liq o'zgarishlar kuzatilayotganini inobatga olib, mazkur o'zgarishlarni umumiy holda innovatsion bozor xizmatlari ko'rsatishning texnologik yondashuvlari sifatida baholash maqsadga muvofiq, deb hisoblandi. Ushbu yondashuvlarni texnologik konsepsiyalar doirasida baholashimizda M. Porterning "besh raqobatbardoshlik kuchi"⁸ nazariyasining zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida amal qilishi, shuningdek, M. Knell⁹ tomonidan texnologik revolyutsiyani "yashil iqtisodiyot" va "raqamli transformatsiya" jarayonlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik orqali tushuntirishga bag'ishlangan tadqiqoti natijalari asos qilib olindi (2-rasm).

⁶ Muallif tomonidan tuzilgan

⁷ Muallif tomonidan tuzilgan

⁸ Loredana E. M. Porter's Competitive Forces. Annals of the "Constantin Brâncuși" University of Târgu Jiu, Economy Series, Issue 4/2024. – pp. 142-146

⁹ Knell M. Technological Revolution and the Co-evolution of Green and Digital Transformation Processes: Tapping the Potential of Diversified Energy Networks. Journal of Innovation Economics & Management No. 3, October, 2024. – pp. 31-55




2-rasm. Texnologik yondashuvlarda bozor xizmatlari ko'rsatishning ustuvorliklari¹⁰

Umuman olganda, zamonaviy iqtisodiy munosabatlar tizimida bozor xizmatlari ko'rsatishda innovatsion loyihalardan foydalanilishi, jumladan, texnologik innovatsiyalarni joriy etilishi, shuningdek, xizmatlar ko'rsatishni tashkil etishda informatsion texnologiyalar (IT) industriyasi mahsulotlaridan, xususan, internet ashyolari (IoT – Internet of Things), sun'iy intellekt (AI – Artificial Intelligence) asosidagi neyronlashtirilgan tizimlar hamda raqamli transformatsiya jarayonlarini kuchaytirish hisobiga xizmat ko'rsatishda raqamli dasturlardan foydalanish amaliyoti tobora kengayib bormoqda. Bu holat bozor xizmatlari ko'rsatish amaliyotidagi texnologik jarayonlarning takomillashuvi evaziga xizmatlar ko'rsatish samaradorligining oshishiga sharoit yaratmoqda.

Shuningdek, innovatsion bozor xizmatlari ko'rsatish sohasining rivojlanishi bilan bog'liq nazariy qarashlarni tahlil qilishda M. Rojersning "innovatsiyalarning tarqalishi" to'g'risidagi ilmiy qarashlariga e'tibor qaratildi. Ushbu ilmiy nazariya innovatsiyalarning bozorga kirib borishi, ularning tarqalishi hamda ma'naviy eskirishi bilan bog'liq innovatsiyaning hayotiy davrini baholashga qaratilganligi bilan xarakterlanadi. Nazariya innovatsiyaning ommalashuvi jarayonini tushuntirib, shunday xulosaga olib keladiki: agar innovatsion bozor xizmati potensial bozor talabidan kelib chiqqan holda ishlab chiqilsa, yuqori samaradorlikka erishish imkoniyati ortadi¹¹.

Tahlillarga ko'ra, innovatsiyalarning tarqalishini ta'minlashda bozordagi innovatsion xizmatlarga bo'lgan potensial talab asosiy omil sifatida qaralishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, F. Kotlarning "marketing nazariyasi"da bozor talabini baholash va unga mos xizmatlar ko'rsatishni tashkil etish bilan bog'liq qarashlari ham muhim o'rin egallaydi. Bu esa, o'z navbatida, bozordagi potensial talabga mos keladigan innovatsion bozor xizmatlari ko'rsatish hajmini oshirish hisobiga bunday xizmatlarning keng tarqalishini ta'minlashga qaratilgan ilmiy yondashuvlarni shakllantiradi¹².

Shu sababli, ushbu nazariy yondashuvlar guruhini innovatsion diffuziya–marketing yondashuvlari deb atash maqsadga muvofiq, deb topildi. Tahlillarga ko'ra, bu turdagi ilmiy qarashlar uchun quyidagi xususiyatlar xos: bozordagi iste'molchilarning innovatsion xizmatlarga bo'lgan potensial talabini aniqlash, ularni tahlil qilish, xizmatlar sifatini baholash va uni talab darajasida takomillashtirish orqali ushbu xizmatlarning keng tarqalishini ta'minlash (3-rasm).



3-rasm. Innovatsion diffuziya-marketing yondashuvlarida bozor xizmatlari ko'rsatishning ustuvorliklari¹³


10 Muallif tomonidan tuzilgan

11 Chen R. A Study Applying Roger's Innovation Diffusion Theory on the Adoption Process of New Teaching Methods in Secondary Education. Research and Advanced in Education. No. 2, Vol. 3, Feb. 2024. – pp. 6-10

12 Kotler Ph. Armstrong G. Principles of Marketing: Seventeenth Edition. Pearson Education Limited, 2018. – 734 pages.

13 Muallif tomonidan tuzilgan

Innovatsion bozor xizmatlarini ko'rsatishda davlat va nodavlat institutlar ishtirokini inobatga olgan holda, D. Nortning "institutsional nazariyasi"ga e'tibor qaratildi. Mazkur nazariyaga ko'ra, innovatsion xizmatlar ko'rsatish sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar, davlat siyosati, regulyatorlik mexanizmlari, shuningdek, sohada davlat va xususiy sheriklik munosabatlarining amal qilishi bilan bog'liq jihatlar tahlil qilinadi¹⁴ (4-rasm).



4-rasm. Institutsional yondashuvlarda bozor xizmatlari ko'rsatishning ustuvorliklari¹⁵

Umuman olganda, institutsional yondashuvlarda innovatsion bozor xizmatlarini ko'rsatish sohasini tartibga soluvchi qonunchilik bazasi, unda ishtirok etadigan institutlarning funksiyalari va mazkur tarmoqning institutsional xususiyatlari tushuntiriladi. Ya'ni, bozor infratuzilmasi tarkibiga kiruvchi davlat va nodavlat tashkilotlari funksiyalari hamda ularning faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy-institutsional asoslar ushbu yondashuvning mazmun-mohiyatini tashkil etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Iqtisodiy fanda innovatsion bozor xizmatlari ko'rsatish amaliyotini rivojlantirishga bag'ishlangan ilmiy qarashlarning turli guruhlar kesimidagi tahlili shuni ko'rsatadiki, har bir guruhga mansub ilmiy nazariyalar ushbu sohani o'z nuqtayi nazaridan baholab, turlicha yondashuvlarni taklif etadi.

Shuningdek, innovatsion bozor xizmatlarini ko'rsatish amaliyotini tushuntirishga qaratilgan ilmiy qarashlarning klassik, texnologik, innovatsion diffuziya–marketing hamda institutsional yondashuvlarini ularning kamchiliklari, afzalliklari va tadqiqot sohalari kabi mezonlar kesimida qiyosiy tahlil qilish asosida quyidagi umumlashtirilgan xulosalarga erishildi (2-jadval):

2-jadval: Innovatsion bozor xizmatlari ko'rsatish amaliyotiga bag'ishlangan ilmiy yondashuvlar guruhlarining qiyosiy tahlili¹⁶

Yondashuvlar	Kamchiliklari	Afzalliklari	Tadqiqot sohalari
Klassik yondashuv	Iqtisodiy sikldagi qisqa muddatli o'zgarishlar inobatga olinmagan	Makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy samaradorlikni tahlil qiladi	Makro darajada iqtisodiy tahlil, iqtisodiy siyosatning samaradorligini baholaydi
Texnologik yondashuv	Jamiyat turmush farovonligi bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy omillar, jumladan, kadrlar ta'minoti bilan bog'liq holatlar chuqur tahlil etilmaydi	Bozor xizmatlari ko'rsatish amaliyotini takomillashtirish bo'yicha texnik-texnologik rivojlanishga ustuvorlik qaratadi	Raqamli transformatsiya, innovatsion xizmatlar, "yashil" xizmatlar, avtomatlashtirilgan xizmat ko'rsatish tizimlarini tadqiq etadi
Innovatsion diffuziya-marketing yondashuvlari	Texnik, hamda, huquqiy-institutsional ta'minot bilan bog'liq jihatlar yetarli darajada tadqiq etilmaydi	Innovatsion bozor xizmatlariga bo'lgan potensial bozor talabiga mos keladigan xizmat ko'rsatish amaliyotini joriy etishni tadqiq etadi	Bozor xizmatlarini iste'molchilarga yetkazish jarayonlarini samarali tashkil etish va uni amalga oshirish

14 Faundez J. Douglass North's Theory of Institution: Lessons for Law and Development. SSRN Electronic Journal. January, 2014. – pp. 1-48. DOI: 10.2139/ssrn.2493052

15 Muallif tomonidan tuzilgan

16 Muallif tomonidan tuzilgan



Institutsioan yondashuv	Bozor xizmatlari ko'rsatish amaliyoti bilan bevosita bog'liqlik yetarli darajada emas	Amaldagi qonunchilik va davlat siyosatini takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlaydi	Innovatsion bozor xizmatlari bo'yicha milliy siyosat va uning regulyatorlari samaradorligi
-------------------------	---	---	--

Birinchidan, innovatsion bozor xizmatlari ko'rsatish amaliyotini tushuntirishga qaratilgan har bir ilmiy yondashuv tadqiqot obyekti va predmetidan kelib chiqqan holda, o'ziga xos afzallik va kamchiliklarga ega hisoblanadi. Shu bilan birga, ma'lum bir guruhga mansub bo'lgan yondashuv asosida innovatsion bozor xizmatlari ko'rsatish amaliyotini tadqiq etish uning chuqur mohiyatini to'liq ochib berish hamda zaruriyatini asoslash uchun yetarli emas. Bu esa tadqiqot uslubiyatini shakllantirish jarayonida yondashuvlarni to'g'ri va ilmiy asosda tanlash zaruratini kuchaytiradi.

Ikkinchidan, yuqorida keltirilgan tartibda innovatsion bozor xizmatlari ko'rsatish amaliyotini tushuntirishga qaratilgan ilmiy nazariyalarni guruhlash mazkur sohani kompleks o'rganish imkoniyatini yaratadi. Ya'ni, innovatsion bozor xizmatlari ko'rsatish amaliyotini chuqur va tizimli tarzda tadqiq etishda bir vaqtning o'zida klassik, texnologik, innovatsion diffuziya–marketing hamda institutsional yondashuvlardan o'zaro mutanosiblikda foydalanish asosida umumlashtirilgan, asosli xulosalarni shakllantirish talab etiladi.

Uchinchidan, o'tkazilgan tadqiqotlar asosida innovatsion bozor xizmatlari iqtisodiy kategoriyasiga quyidagi mualliflik yondashuvi ishlab chiqildi: Innovatsion bozor xizmatlari — bu mamlakat milliy iqtisodiyoti tarmoqlarining innovatsion rivojlanganlik darajasiga mos keladigan va unda yuqori darajada ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlashda iste'molchilarning potensial talablariga moslashgan holda, bozor infratuzilmasi tarkibiga kiruvchi davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan mamlakat qonunchiligi doirasida ko'rsatiladigan yangi turdagi innovatsion xizmatlar majmuidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Merlassino V.C. The Economic Writings of Sir William Petti (1623-1687): Never Translated into Spanish Language. Universitat de Barcelona. [Web Resource]. URL: [https://eet.pixel-online.org/files/research_papers/SP/The%20Economic %20 Writings%20of%20Sir%20William%20Petty%20.pdf](https://eet.pixel-online.org/files/research_papers/SP/The%20Economic%20Writings%20of%20Sir%20William%20Petty%20.pdf)
2. Bilginsoy C. Quesnay's Tableau Economique: Analytics and Policy Implications. Oxford Economic Papers, No 46, 1994. – pp. 519-533
3. Migunov R.A., Syutkina A.A. Classical and Neoclassical Economic Theory: Fundamentals of Regulation or the Agricultural Sector. BIO Web of Conferences , 05031, 2024. – pp. 1-10. DOI: 10.1051/bioconf/20248205031
4. Tsoulfidis L. Adam Smith's Theory of Value and the Falling Rate of Profit: Uncommon Conceptions and Common Misconceptions. IE, 83 (330), Otoño 2024, - pp. 28-52
5. Bagchi T.P., Mohanty R.P., Sinha S. A Tutorial on Optimisation Involving David Ricardo Theory on Comparative Advantage. International Journal of Industrial and Systems Engineering, Vol. 44 (1), May, 2023. – pp. 1-18. DOI: 10.1504/IJSIE.2023.130918
6. Loredana E. M. Porter's Competitive Forces. Annals of the "Constantin Brâncuși" University of Târgu Jiu, Economy Series, Issue 4/2024. – pp. 142-146
7. Knell M. Technological Revolution and the Co-evolution of Green and Digital Transformation Processes: Tapping the Potential of Diversified Energy Networks. Journal of Innovation Economics & Management No. 3, October, 2024. – pp. 31-55
8. Chen R. A Study Applying Roger's Innovation Diffusion Theory on the Adoption Process of New Teaching Methods in Secondary Education. Research and Advanced in Education. No. 2, Vol. 3, Feb. 2024. – pp. 6-10
9. Kotler Ph. Armstrong G. Principles of Marketing: Seventeenth Edition. Pearson Education Limited, 2018. – 734 pages.
10. Faundez J. Douglass North's Theory of Institution: Lessons for Law and Development. SSRN Electronic Journal. January, 2014. – pp. 1-48. DOI: 10.2139/ssrn.2493052

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100